



ERKIN VOHIDOVNING KAMTARLIK SHE'RIDA IJODIY TAFAKKUR: ADABIYOTDAGI G'URUR VA SADOQAT

Norboyeva Zuhraxon Alijon qizi

alidjanovnaaa999@email.com

*O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti, Ingliz filologiyasi fakulteti,
Toshkent, O'zbekiston*

***Annotatsiya:** Mazkur maqola Erkin Vohidovning "Kamtarlik Haqida" she'rini tahlil qilishga qaratilgan. She'r orqali shoirning kamtarlik va mag'rurlik, insoniy fazilatlar va ularga bo'lgan yuksak ehtirom haqida fikr yuritishiga urg'u berilgan. Shoirning o'zbek adabiyotidagi o'rni va uning she'riyatiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Vohidovning ijodi, shaxsiy hayoti va adabiy merosi yoritilib, uning o'zining falsafiy qarashlari va insoniyatga bo'lgan yuksak hurmatini aks ettirgan asarlari tahlil qilinadi.*

***Kalit So'zlar:** Erkin Vohidov, kamtarlik, mag'rurlik, insoniy fazilatlar, shoir, adabiyot, ijod, insoniyat, ehtirom, she'r tahlili.*

KIRISH

Adabiyot bu hayotning aksidir, unda har bir so'z, har bir fikr insonning ichki olamidan bir iz qoldiradi. Kamtarlik, mag'rurlik, va insoniy fazilatlar haqida fikr yuritish, odamni nafaqat o'zini, balki jamiyatni ham anglashga undaydi. Adabiyotni bu kabi chuqur ma'nolarni anglashda yordamchi vosita sifatida qarash mumkin. Erkin Vohidovning she'rlari ham shunday, ularning har biri hayot haqidagi falsafiy fikrlarni o'zgacha, o'ta nozik tarzda bayon etadi. Erkin Vohidov O'zbekistonda o'zining so'z san'ati bilan mashhur bo'lgan buyuk shoir, dramaturg va tarjimon. Shoirning asarlari nafaqat adabiyot ixlosmandlari, balki keng jamoatchilik orasida ham yuqori baholanadi. U o'z she'rlarida milliy ruhni,



insoniyat qadriyatlarini va ichki dunyo muammolarini yuqori mahorat bilan ifodalagan. Vohidov nafaqat she'rlar, balki pyesalar va tarjimalari orqali ham keng tanilgan.

Erkin Vohidov (1936-yil 28-dekabr, Oltiariq tumani, Farg'ona viloyati, O'zbekiston SSR – 2016-yil 30-may, Toshkent, O'zbekiston) – O'zbekistonda tanilgan shoira, dramaturg, adabiy tarjimon va davlat arbobi. U o'z she'rlarini yozish bilan bir qatorda, Aleksandr Tvardovskiy, Johann Wolfgang von Goethe, Muhammad Iqbol, Rasul Hamzatov va Sergey Yesenin kabi mashhur xorijiy ijodkorlarning asarlarini o'zbek tiliga yuksak mahorat bilan tarjima qilgan. Ayniqsa, shoirning Yesenin asarlarini va Goethening "Faust" asarini tarjima qilgan asarlari katta e'tiborga loyiqdir. Erkin Vohidov 1983-yilda Hamza nomidagi O'zbekiston SSR Davlat mukofoti bilan taqdirlangan, 1987-yilda O'zbekiston xalq shoiri unvonini olgan. 1995-yilda "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan va 1999-yilda O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan. Shoirning she'rlari o'zbeklar orasida keng tarqalgan va tez-tez nashr etiladi. Ko'plab she'rlariga kuy bastalangan, jumladan, Sherali Jo'rayev tomonidan. Vohidovning "Inson" she'ri asosida yaratilgan "Human" ashulasi arab, ingliz, italyan, qozoq, rus, tojik, turk va o'zbek tillarida taqdim etilgan. Erkin Vohidovning hayoti va ijodi o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi. Uning ilhomini o'zining tog'asi Karimboy Sohiboyev va ko'plab adabiyotshunoslardan olgan. Shoir o'zining yirik ijodiy faoliyatini 1960-yilning boshlarida boshlagan va bugungi kunda ham uning asarlari o'quvchilarni ilhomlantirib kelmoqda. Vohidovning she'riyatga bo'lgan qiziqishi yoshligidan boshlangan. 14 yoshida "Mushtum" jurnalida birinchi she'rini chop ettirgan. Uning birinchi she'riy to'plami "Tong Nafasi" (1961) bo'lib, undan so'ng "Shoiru, She'ru, Shuur" (1987) kabi ko'plab asarlar nashr etilgan. Shoir uchta pyesa ham yozgan: "Oltin devor," "Istanbul fojiasi," va "Ikkinchi tumor." Uning pyesalari jahon teatrlarida qo'yilgan. Uning "Kamtarlik Haqida" she'ri o'quvchiga juda katta ma'naviy saboq beradi. Bu she'rda nafaqat kamtarlikning o'zi, balki



magʻrurlik va manmanlikning zararli oqibatlari haqida gap boradi. Har bir satrida insonni oʻzining ichki olamiga sayohatga chiqaradigan chuqur maʼno mavjud:

Garchi shuncha magʻrur tursa ham,

Piyolaga egilar choynak.

Shunday ekan, manmanlik nechun,

Kibru havo nimaga kerak?

Bu birinchi misrada Vohidov magʻrur boʻlishning befoyda ekanligini taʼkidlaydi. “Piyolaga egilar choynak” deyish orqali, u oʻzining ichki kuchini va narsalarning asl ahamiyatini taʼkidlashni maqsad qilgan. Choynak kichik va oddiy boʻlsa ham, piyola uchun egilishga majburdir. Bu orqali shoir oʻz-oʻzini pishirish, boʻlishni va kichik boʻlishni tavsiya qiladi. Shunday qilib, manmanlikning hech bir foydasi yoʻq va u faqat zararli ekanligini shoir ramziy timsollar orqali ifodalab bergan.

Kamtarin bol, hatto bir qadam

Oʻtma gurur ostonasidan.

Piyolani inson shuning-chun

Oʻpar doim peshonasidan.

Bu yerda Vohidov kamtarlikni madh etadi. “Kamtarin boʻlish” – bu insonning haqiqiy yuksalishi, boshqalarga hurmat koʻrsatish va ularga ulkan muhabbat bilan yondashishdir. Bu sheʼrda, Piyolani "peshonasidan oʻpar" degan tasvirda, insonning boshqalarni ulugʻlashini koʻrsatadi. Peshona insonning eʼtiborli va muhim joyi, shuning uchun boshqalarni peshonasidan oʻpishularga hurmat va



ehtirom ko'rsatishning ramzidir. Bu she'r, shuningdek, g'ururdan voz kechib, insoniylikni va o'zini past tutishni tavsiya qiladi.

Erkin Vohidovning "Kamtarlik Haqida" she'ri o'zida insonning kamtarlik, shafqat va o'z-o'zini anglash kabi yuksak fazilatlarni targ'ib etadi. U g'urur va manmanlikka qarshi chiqib, o'zini past tutish, boshqalarni qadrlash va ularga hurmat ko'rsatishni talab qiladi. Bu she'r nafaqat adabiyot, balki insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash va yaxshilikni tarqatishga qaratilgan bir dasturdir.

XULOSA

Erkin Vohidovning ijodi nafaqat o'zbek adabiyotining yuksak namunasi, balki uning hayotiy tajribasi, shaxsiy qadriyatlari va insoniyatga bo'lgan ehtiromining aksidir. Shoirning she'rlarida adabiyotning yuksak san'at shakllaridan foydalanilgan bo'lib, har bir asarida insonning ichki olami, uning hissiyotlari va dunyoqarashi nafaqat ifodalangan, balki ularga chuqur ma'no berilgan. "Kamtarlik Haqida" she'ri aynan shu jihatlarni o'zida mujassam etadi. Shoir bu asarda mag'rurlikning zararli oqibatlarini yoritib, kamtarlikning naqadar yuksak fazilat ekanini namoyon etadi. Erkin Vohidovning ijodi va shaxsiga bo'lgan hurmat uning yozgan har bir so'zida, uning insoniyatga bo'lgan ehtiromida ifodalangan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Vohidov, E. (1961). *Tong nafasi*. Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi.
2. Vohidov, E. (1987). *Shoiru, she'ru, shuur*. Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi.
3. "Kamtarlik Haqida" (1956). Tafakkur.net. <https://tafakkur.net/kamtarlik-haqida/erkin-vohidov.uz>



4. Rahmon, R. (2009). *Erkin Vohidov va o'zbek adabiyotining zamonaviy tahlili*. Toshkent: O'zbekiston ilmiy nashriyoti.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Erkin_Vohidov
6. <https://tafakkur.net/sherlar/erkin-vohidov>